



ASTRONOMIYA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISHDA "ASTRONOMIK LUG'AT" MOBIL ILOVASINING AHAMIYATI

Haitova Sevinchxon G'olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti, Aniq fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xaitova Shaxnoza G'olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada astronomiya fanini o'qitishda "Astronomik lug'at" mobil ilovasidan foydalanishning ahamiyati va usullari yoritilgan. XXI asrda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada Android operatsion tizimi imkoniyatlaridan foydalanib, astronomiya faniga oid mobil ilovalar yordamida dars jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, "Astronomik lug'at" mobil ilovasining o'quvchilar va talabalar uchun rus va ingliz tillaridagi atamalarni oson o'zlashtirish, xorijiy adabiyotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari bu ilovaning astronomiya fanini o'qitishda samarali vosita sifatida ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: amaliy masg'ulotlar, dasturlar, innovatsiya, rivojlantirish, kompetensiya, kompetantlik, kasbiy kompetansiya, axborot texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются значение и методы использования мобильного приложения «Астрономический словарь» в процессе преподавания астрономии. В XXI веке эффективное применение информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе является важным фактором повышения профессионального мастерства педагогов. Анализируются возможности использования операционной системы Android для создания интерактивных и познавательных занятий по астрономии. Особое внимание уделено роли мобильного приложения «Астрономический словарь» в расширении возможностей студентов и учащихся при изучении терминов на русском и английском языках, а также при работе с иностранной литературой. Результаты исследования показывают, что данное приложение является эффективным инструментом повышения качества обучения астрономии.

Ключевые слова: практическое обучение, программы, инновации, развитие, компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, информационные технологии.

Annotation. This article explores the significance and methods of using the "Astronomical Dictionary" mobile application in teaching astronomy. In the 21st century, the effective use of information and communication technologies in education plays a crucial role in enhancing teachers' professional competence. The paper analyzes the potential of Android-based mobile applications for creating interactive and engaging astronomy lessons. It highlights how the "Astronomical Dictionary" app helps students and learners to easily understand terminology in Russian and English, thus improving access to foreign scientific literature. The findings demonstrate that this mobile tool can serve as an effective means of enhancing the quality of astronomy education.

Key words: practical training, programs, innovation, development, competence, competence, professional competence, information technology.



KIRISH

XXI asr – informatsion texnologiyalar asrida yashamoqdamiz. Texnologiyalar kun sayin rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanishning salbiy va ijobiy tomonlari bor. Yoshlar qimmatli vaqtlarini behuda mobil o‘yinlar va elektron qimorlar sarflashlari ayanchli holat. Mobil o‘yinlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o‘yinlarini qiziqarli, jozibali yangi versiya va turlarini jadallik bilan rivojlantirib, ishlab chiqarishmoqda. Ta’limiy mobil ilovalar(dasturlar) esa rivojlanish biroz sustroq.

Astronomiya fanini o‘qitishda faqatgina darslik kitob bilan cheklanib qolmasdan, jahonda eng ko‘p foydalanilayotgan astronomiyaga oid tekin mobil ilovalardan ham unumli foydalanishimiz zarur.

Axborot texnologiyalari faoliyatning har bir bosqichida o‘qituvchining eng yaqin ko‘makchisi. Malakali pedagog darsga tayyorgarlik ko‘rishdan tortib, uni sifatli, qiziqarli va natijali o‘tkazishgacha barcha jarayonlarda kompyuter, internet, multimedia vositalaridan unumli foydalanishi shubhasiz. Xususan, darsga tayyorgarlik ko‘rishda kompyuter orqali didaktik, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar, slayd va dars ishlanmalarini tayyorlashi, internet yordamida esa ularni turli qo‘shimcha ma’lumotlar, qiziqarli surat, audio-video lavhalar bilan boyitishi mumkin.

Navbatdagi o‘rinda, ya’ni dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilar dunyoqarashi, bilim va ko‘nikmalarini ko‘rish, eshitish va mustaqil bajarish orqali rivojlantirishga ko‘maklashadi. Darsning har bir bosqichi – o‘tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash, yangi bilimlar bayoni, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlarini bevosita axborot texnologiyalari yordamida qisman yoki butunlay amalga oshirish imkoniyati mavjud. Buning uchun esa bir necha kompyuter dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasi, ozgina vaqt va qunt talab etiladi, xolos. Shu yo‘l bilan o‘qituvchi eng katta maqsadga erishadi – o‘quvchilarga sifatli ta’lim beradi, ularni katta hayotga tayyorlaydi.

So‘nggi yillarda qariyb barcha umumta’lim maktablari o‘quv-laboratoriya jihozlari va zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta’minlandi. Ushbu jarayon uzluksiz davom ettirilishi bilan bir qatorda navbatdagi muhim masala – ulardan ta’lim jarayonida unumli foydalanish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha fan o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakasi oshirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda astronomiya fanini rivojlantirish, iqtidorli va qiziquvchan yoshlar orasidan ushbu sohaning malakali kadrlarini tayyorlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni astronomiyani o‘rganish bo‘yicha xalqimizning tarixiy an‘analariga



sadoqat ruhida tarbiyalash, iqtidorli yoshlarning astronomiya ilm-faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida yurtimizda astronomiya faniga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda.

Android (Android) smartfon, Internet-planshetlar, elektron kitoblar, raqamli futbolchilar, soatlar, o'yin konsollari, netbuklar, smartbooklar, Google ko'zoynaklar, televizorlar va boshqa qurilmalar uchun operatsion tizimdir.

Android Google tomonidan ishlab chiqilgan kutubxonalar orqali qurilmani boshqaradigan Java dasturlarini yaratishga imkon beradi. Android Native Development Kit sizga C va boshqa tillarda yozilgan port kutubxonalarini va dastur komponentlarini beradi.

Android dasturlarning ustunliklari

Ochiqlik, undan foydali vazifalarni amalga oshirish uchun.

Internetga ulanmasdan dasturlarni o'rnatish.

Turli apparat tizimlari uchun mavjudligi.

Muqobil dastur do'konlar mavjudligi.

Ko'p foydalanuvchi qo'llab-quvvatlashi (Android3 bilan).

Android operatsion tizimining nuqsonlari

Ba'zi Android qurilmalarda kompaniya serverlarida identifikatsiya ma'lumotlarini uzatish imkoniyatini beruvchi Google xizmatlari mavjud, masalan, foydalanuvchining haqiqiy harakati haqida ma'lumot.

"Tasdiqlanmagan manbalardan" dasturlarni o'rnatish qobiliyati Android platformasida qaroqchilikka olib keladi.

Android 1.6 versiyasida ishlab chiquvchilar o'zlarining past darajadagi modullarini C / C ++ tillarida yozib olish imkonini beradigan, standart Linux kutubxonalariga tayanishga imkon beruvchi Native Development Kit ni qo'shganlar. Masalan, Android platformasida Bionic deb nomlanuvchi standart C til kutubxonasi libc bilan standart va to'liq mos emas.



Google Play va Google xizmatlaridan boshqa xizmatlarga kirish uchun telefon ishlab chiqaruvchisi faqatgina Google bilan shartnoma imzolanganidan keyin telefonda o'rnatilishi huquqiga ega bo'lgan xususiy ilovalardan foydalanish kerak.

XULOSA

Lug'atdan foydalanishning ahamiyati: O'qituvchilar, o'quvchilar, talabalar va boshqa astranomiya qiziquvchilar uchun qulaylik yaratish. Bugungi kunda ko'pchilik chet tilini yaxshi o'zlashtirgan lekin ma'lum bir fanga oid chet tilidagi adabiyotni o'qiy olish uchun tilni bilish kamlik qiladi. Bunda shu fanga oid atamalarni to'g'ri tarjima qila olish juda muhim. Ma'lum bir atamani rus va ingliz tilidagi tarjimasini tez va oson topish ularga barcha chet el adabiyotlarini qiyinchiliksiz o'qiy olish va o'zbek tilidagi ma'lumotlarni tarjima qila olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Applications on Students' SocialLife. International Journal of Instruction, v11 n2 Ahmed Yousif Abdelraheem. The Impact of Using Mobile Social Network p1-14 Apr 2018.
2. Avlaev Orif Umirovich, Abdujalilova Shoir Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 3983-3991.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
4. Xaitova Sh.G', Sayfullayeva G.I, Kamolov I.R, Sunnatova.O'.Q Avezmuratova Z.A STEAM ta'lim tizimida fizika astranomiya o'qitish fanidan laboratoriya mashg'ulotlari.darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024- yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i №646168.
5. Xaitova Sh.G', Sayfullayeva G.I, Kamolov I.R, Sunnatova.O'.Q Avezmuratova Z.A, Kamalova D.I STEAM ta'lim tizimida fizika va astronomiya o'qitish. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024- yil 7- mayda 149-sonli buyrug'I № 792673.
6. Xaitova Sh.G' Astronomiya fanini o'qitishda pedagogik va modulli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. Lifelong learning ilmiy-nazariy va metodik jurnal N 3,2025. 86-bet.
7. Xaitova Sh.G', Sayfullayeva G.I ,Rashidova N.N Quyosh aktivligi va iqtisodiyot. Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari 15-konferensiya to'plami 24 iyun 2021 yil.
8. Xaitova Sh.G', Sayfullayeva G.I, Kamalova D.I, Mansurov SH.M., Omonboyeva M.Y, Kamolov I.R, Quyosh va uning tuzilishi. Elektron o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi. Intellektual mulk agentligi. №20200341 DGU, 20.05.2020 y.